

solliq bo'yicha hisoblangan summaning, ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab, 3 yoki 5 yil davomida uch qavatli, to'rt qavatli, besh qavatli, olti qavatli, yetti qavatli va undan yuqori qavatli binolarga pasaytiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda to'lashni joriy qilish lozim.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. *Файбуллаев О, Ўроқов У. (2016). Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. – 21 б*
2. *Маликов Т. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари.Т.: Академия, 2002. 116 б.*
3. *Ламперт Я. 1993. Некоторые современные принципы налогообложения. М.: ГПНТБ, 2-б.*
4. *Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna., O'zbekiston soliq tizimida mavjud soliqlar bazasini aniqlash taribi va unga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari // Иқтисодиёт ва таълим.- Тошкент, 2021 -№5.-Б. 205-210.*

## **AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHDA MOLIYAVIY SIYOSATNING O'RNI**

***Temirov Muxammadali Xamidovich***

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini Rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil tadqiqotchisi*

Aholining hayot sifati iqtisodiyot va umuman jamiyat holatining asosiy ko'rsatkichidir. Hayot sifati ko'p jihatlarni o'z ichiga oladi, masalan, daromad darajasi, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy, xizmatlar va infratuzilma, shuningdek, atrof-muhit sifati va jamoat xavfsizligi. Bu fuqarolarning farovonligiga bevosita ta'sir qiladi va ularning hayotdan qoniqish darajasini belgilaydi.

"Hayot sifati" - sotsiologiya, iqtisod, siyosat, tibbiyot va boshqa ba'zi sohalarda qo'llaniladigan juda keng tushuncha bo'lib, inson hayotining ma'lum sharoitlari va xususiyatlarini baholashni anglatadi, odatda o'zining ushbu shartlar va xususiyatlardan qoniqish darajasiga asoslanadi. Bu hodisa moddiy ta'minotdan (turmush darajasidan) kengroq bo'lib, sog'liqni saqlash holati, umr ko'rish davomiyligi, atrof-muhit sharoitlari, ovqatlanish, maishiy qulaylik, ijtimoiy muhit, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, psixologik qulaylik kabi obyektiv va subyektiv omillarni o'z ichiga oladi [1].

Aholining turmush darajasini oshirish ko'plab davlat va xalqaro rivojlanish strategiyalarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Siyosat va iqtisodiy aralashuvlar asosiy xizmatlar va resurslardan foydalanishni ta'minlash, ish o'rinlari yaratish, daromad darajasini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlashni yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan.

Hayot sifati ko'rsatkichlarini monitoring qilish va tahlil qilish amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar samaradorligini baholash, shuningdek, qo'shimcha harakatlarni talab qiladigan sohalarni aniqlash imkonini beradi.

Ushbu tahlil shuningdek, qashshoqlik, ishsizlik, tengsizlik kabi ijtimoiy muammolarni aniqlashga yordam beradi va ularni hal qilish siyosatini ishlab chiqish uchun asos yaratadi. Aholining hayot sifatini oshirish har qanday mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy vazifasi bo'lib, unga erishish hukumat va fuqarolik jamiyati tomonidan kompleks va uzoq muddatli yondashuvni talab qiladi. Yuqorida qayd etilganlar ushbu ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Aholining hayot sifati bilan bog'liq savollar o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, chunki, hayot sifati mamlakat uchun iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Fuqarolar hayotini yaxshilashga qaratilgan samarali chora-tadbirlar nafaqat ularning farovonligini oshirish, balki jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Cheklangan byudjet resurslari sharoitida aholining turmush sifatini yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoldagi tafovutlarni bartaraf etish uchun ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish muammosini hal qilish alohida ahamiyatga ega [2].

Hozirgi vaqtda "hayot sifati" atamasining universal ilmiy ta'rifi mavjud emas. Uning amaliy qo'llanilishi shu kabi keng qo'llaniladigan tushunchalardan, masalan, hayot sifatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan "turmush darajasi" bilan farqlashni talab qiladi.

Aholining turmush darajasi - jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi va ularni qondirish darajasini, shuningdek, jamiyatda ushbu ehtiyojlarni rivojlantirish va qondirish uchun sharoitlarni ifodalovchi murakkab kompleks kategoriyadir. Moddiy yoki ramziy shaklga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlar ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi [3].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalariga muvofiq, aholining turmush darajasi sog'liqni saqlash, iste'mol darajasi, bandlik, ta'lim, uy-joy va ijtimoiy ta'minotni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan o'lchanadi. 1990 yildan beri Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyoning turli burchaklarida inson hayoti sifatini o'rganish bo'yicha yillik hisobotini e'lon qiladi [4]. Mamlakatning inson rivojlanishini baholashda quyidagi omillar hisobga olinadi: umr ko'rish davomiyligi, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimining rivojlanishi, ijtimoiy ta'minot, ekologiya, jinoyatchilik darajasi, inson huquqlariga rioya qilish va aholi jon boshiga yalpi milliy daromad miqdori [5].

Mamlakat aholisining hayot sifatini oshirishda davlatning moliyaviy siyosati asosiy o'rin tutadi. U fuqarolar hayotining turli jabhalariga ta'sir ko'rsatadi va uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy sohada sezilarli yaxshilanishlarga olib kelishi mumkin. Uning funksiyalari va ta'sirini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Byudjet davlat siyosatining vositasi sifatida: Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida davlat byudjeti davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Davlat byudjet daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish orqali mablag'larni iqtisodiy va

ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga, shuningdek, iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etishga jamlaydi. Davlat byudjeti milliy iqtisodiyotni moliyalashtiradi, ijtimoiy-madaniy tadbirlar va fundamental ilmiy tadqiqotlar sohasidagi umumdavlat dasturlarini qo'llab-quvvatlaydi.

2. Milliy daromadni qayta taqsimlash vositasi: Davlat byudjeti ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini belgilab, milliy daromadni qayta taqsimlashni amalga oshiradi. Iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir ko'rsatish choralari orqali u subsidiyalar, davlat investitsiyalari va innovatsion taraqqiyotga hissa qo'shadigan tarmoqlarni moliyalashtiradi va shu bilan iqtisodiyot tarkibini o'zgartiradi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish uchun byudjet mexanizmidan foydalanadi, o'z ixtiyoridagi mablag'larni boshqaradi.

3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Davlat byudjeti ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va uy-joy qurilishi kabi ijtimoiy soha muassasalarini moliyalashtirishni ko'paytirish orqali ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi. Bu fuqarolarning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashi mumkin, bu esa ularning hayot sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

4. Hududlar rivojlanishini uyg'unlashtirish: Davlat byudjeti turli obyektlarni moliyalashtirish orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tenglashtirishda muhim vazifani bajaradi.

Ushbu moliyalashtirish qaytariladigan yoki qaytarilmaydigan bo'lishi mumkin va turli hududlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

5. Resurslarni safarbar qilish: Byudjetning asosiy roli shundan iboratki, u yildan yilga korxonalar, tashkilotlar va aholining pul mablag'larini markazlashgan davlat fondiga jamlaydi va xalq xo'jaligini, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash hamda davlat organlari faoliyatini ta'minlashga sarflaydi.

Byudjet iqtisodiyotga byudjet mexanizmi orqali ta'sir qiladi. Bu byudjetning ijtimoiy siyosatga va umuman iqtisodiyotga ta'sir qilish vositasi sifatidagi rolini ochib beradi. Byudjet mexanizmi - bu davlat mablag'larining markazlashtirilgan fondini shakllantirish va ulardan foydalanish shakllari va usullari yig'indisidir. Iqtisodiyotni tartibga solish markazlashtirilgan mablag'lar fondining miqdoriy hajmini belgilash, uni shakllantirish va ishlatish shakllari va usullarini tartibga solish, byudjetni shakllantirish va ijro etish jarayonida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladi [6].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, davlatning moliyaviy siyosati byudjet xarajatlarini tartibga solish, infratuzilmaga investitsiyalar va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash orqali aholining hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu siyosatni samarali boshqarish fuqarolar hayotini yaxshilash va mamlakat ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Shunday qilib, byudjet davlatning tashkiliy funktsiyalarini amalga oshirishning muhim vositasi, shuningdek, iqtisodiyotdagi ijtimoiy ustuvor vazifalarni hal etishda samarali vositadir.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Шимановская Я.В., Козловская С.Н. (2017) Исторические предпосылки формирования понятия «качество жизни» населения // ЦИТИСЭ. № 2 (11). С. 2. Gorodnova N.V., Samarskaya N.A. (2019) Improving the quality of life of the population in the current economic conditions of Russia. Discussion, 94, p.48-58.
3. Санталова М.С., Балаханова Д.К. (2016) Формирование системы управления качеством жизни населения в регионе // European Social Science Journal. № 10. С. 95–97.
4. Larsson U., Taft C., Karlsson J., Sullivan M. Gender and age differences in the relative burden of rhinitis and asthma on health related quality of life a Swedish population study // Respiratory Medicine. 2007. Is. 101-6. P. 1291–1298. 7.
5. Ivanetska S.B., Galavda T.O. Social responsibility as a factor of ensuring of increasing the level and quality of life for the population // Economics, Management, law, Innovation strategy. 2016. S. 1. P. 19–22
6. Кулекеев Ж.А., Султангазин А.Ж., Зейнельгабдин А.Б. и др. (2017) Экономический рост и расходы государства. — Астана: Академия государственной службы при Президенте Республики Казахстан.

## **STARTAP EKO TIZIMINI YARATISHDA HORIJ TAJRIBASI. BELARUS DAVLATI MISOLIDA**

**Turgunov Doston Turgunovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida doktoranti*

So'nggi 5 yillikda startaplar eko tizimi butun dunyo bo'ylab faol rivojlanib kelmoqda. Shu jumladan Belorusiya davlatida ham bu yo'nalish faol rivojlandi. Birinchi o'n yillikda Belarusiyada innovatsion tadbirkorlik loyihalari kam edi va "startap" so'zi ko'pchilikga tushunarsiz bo'lgan. Bir necha yillar davomida vaziyat sezilarli darajada o'zgarmadi. Belorussiyaning "Growth up" startap loyihasi ilk marta o'ziga katta mablag' jalb etganidan so'ng qolganlarda startaplarga qiziqish yuzaga keldi. Shundan so'ng Belarus startap ekotizimlari shakllana boshladi. Startap ekotizimining yagona ta'rifi mavjud emas, lekin u ko'pincha o'zaro ta'sir va raqobat jarayonida yangi tarkibni o'rnatadigan va qabul qiluvchi turli sub'ektlardan iborat dinamik va birgalikda rivojlanayotgan jamoalar sifatida talqin etiladi.

Startap ekotizimini shunchaki startap deb hisoblash xato bo'ladi. Shuningdek, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: kollejar, universitetlar, ta'lim dasturlari, biznes farishtalar, venchur kapital kompaniyalari, kraudfunding platformalari, kreditlar va grantlar, inkubatorlar va akseleratorlar, ayrim hollarda esa faol ishtirokchilar ommaviy axborot vositalari, korporatsiyalar va qo'llab-quvvatlovchi hukumat fondlari, tadqiqot tashkilotlari hisoblanadi. Startap ekotizimining a'zolari o'zlarining mahalliy hamjamiyatiga innovatsiyalarni olib kelish va yangi biznesni qurish va kengaytirish uchun mavjud resurslardan foydalanish uchun birgalikda ishlaydi.

Eslatib o'tamiz, "StartupBlink", "Global startup" ekotizimlari reytingida 2020 yil uchun Belarus davlati 63 o'rinni egallagan, 2019 yilga nisbatan mamlakatimiz